

## “O’zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” III Respublika tanlovi

Bahoriy bayramlari arafasida O’zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan “O’zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” III Respublika tanlovi o’tkazildi. Mazkur tanlovda O’zR FA Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining ilmiy xodimlari – Noira Voxidova hamda Barno Karabaeva ishtirok etdilar va g’oliblikni qo’lga kiritgan 100 nafar ayollar safidan o’rin oldilar. G’olib bo’lgan ayollarga diplom, ramziy sovrin va esdalik sovg’alari topshirildi.



Mazkur tanlov mamlakatimizda ayollarga berilayotgan e’tibor, ularning ilmiy va tadbirkorlik faoliyatini qo’llab- quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohatlardan darak beradi. Ishonamizki, ushbu tadbir Respublika olma ayollarining mamlakatmiz taraqqiyoti va gullab-yashnashi yo’lida yanada faolroq ishtirok etishlariga omil bo’ladi.